

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix kafedrası 42-guruh talabasi

Haqqulov Sarvar Abdualimovich

“O‘rta asrlar tarixi” fanidan

yozgan

REFERAT

Mavzu: *Shayboniylar davrida Buxoro xonligi.*

Bajardi: Haqqulov Sarvar

Qabul qildi: t.f.n.A.Hasanov

Qarshi 2013-yil

MUNDARIJA

Kirish	3
1.Shayboniylar davlatining tashkil topishi.	
1.1.Muhammad Shayboniyxonning Movaraunnahr va Xurosonga yurishi.....	6
1.2.Buxoro xonligining tashkil topishi	16
2. Buxoro Shayboniylar davlatining poytaxti.	
2.1.Buxoroning poytaxt sifatidagi ahamiyati.....	22
X U L O S A	64
Adabiyotlar ro‘yxati	67

KIRISH

Mustaqil o`zbek davlati xalqimizning tarixiy yutug`idir. O`z davlati bilan faxirlanish va fuqorolarning vatanparligi jahondagi ko`pgina mamlakatlarning ilg`or marralarga chiqib olishiga yordam bergan. Mamlakatimiz tuprog`ida yashab turgan va o`zini vaqtanparvar deb hisoblagan har bir kishi uning yaxlitligi va birligini asrab avaylay olishi shart.

Har bir insonning, ayniqsa endigina hayotga qadam qo`yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o`rtaga qo`yilgan maqsadlarga erishish o`zlariga bog`liq ekanligini, ya`ni bu narsa ularning sobit qadam g`ayrat shijoatiga; to`la -to`kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog`liq ekanini anglab yetishi kerak. Huddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir. "Jamiyatshunoslar O`zbekiston tarixining ko`pgina sahifalarini qayta bitishlari, chunonchi, chorizm yillarida O`rta Osiyo xalqlarining milliy ozodlik harakati, 1920-1930 yillardagi adabiy g`oyaviy jarayonlar, kollektivlashtirish va boshqa hodisalarga hujjatlar asosida nazar solishlari kerak".¹

Xalqimiz yuz yillar mobaynida ozodlikni orzu qilgan. O`zbekiston chinakam mustaqillikni qo`lga kiritib gullab yashnab va farovonlikka erishishi, taraqqiy etgan demokratik davlatlar qatori xalqaro hamjamiyatda munosib o`rinni egallashi biz kuzatayotgan oliy maqsaddir.

O`zbek davlatchiligi tarixida alohida o`ringa ega bo`lgan Shayboniylar davlatini qayta tiklash yo`lida kurash olib borgan Muhammad Shayboniyxon o`zbek-qozoq" qabilalari tomonidan kuchli qarshilikka duch kelgan. Bu qabilalar Shayboniyxonni qo`llab-quvvatlagan qabilalarni asta-sekin janubga tomon siqib chiqarganlar. Shayboniy bobosi Abulxayrxon vafotidan parokanda bo`lib ketgan qabilalarni birlashtirdi va beayov qonli urushlar natijasida 1480-yilda ko`chmanchi o`zbeklar davlatini qayta tiklashga muvaffaq bo`ldi. Shayboniyxon ko`chmanchilarning jangovar an`analari bilan O`rta Osiyo shaharlarining madaniy

¹ Karmiov.I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida T. 2011. 91 bet.

yutuqlarini birlashtira olishi uning istilochilik yurishlari muvaffaqiyatli chiqishiga yordam berdi.

Shayboniyxon 1497-yilda Movarounnahrda o'zining dastlabki yurishini uyushtirgan. U katta kuch bilan Samarqandga yurish qildi, lekin shaharni ololmasdan, Qarshi va Shahrisabzga hujum qilib katta o'lja bilan qaytib ketgan. Shayboniyxon 1499-yildan Movarounnahrni zabt qilishni boshladi. 1499-yilda u jangsiz Buxoroni va 1500-yilda temuriylar davlatining poytaxti bo'lmish Samarqandni egallaydi. Shu tariqa Temuriylar davlati o'rnida Shayboniylar hukmronligi o'rnatildi.

1533-yilda Abu Saidxon vafotidan so'ng, turkiy an'anaga binoan sultonlar ichida eng yoshi ulug'i Ubaydullaxon Buxoroda shayboniylar sulolasining xoni qilib ko'tarilgan. Poytaxt ham Samarqanddan Buxoroga ko'chirilib, davlatning nomi rasmiy ravishda Buxoro xonligi deb atalgan. Nafaqat Ubaydullaxon hukmronligi davrida balki butun Shayboniylar davrida Buxoroning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatidagi mavqei kuchaydi. Shu jihatdan olib qaraganda mustaqillik sharofati bilan shayboniylar davrida Buxoro mavzusini tadqiq etish dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Shayboniylar davrida Buxoroning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatidagi ahamiyati tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar orqali yoritib berildi va tizimlashtirildi.

- Shayboniylarning Markaziy Osiyo yerlariga kirib kelishi sabablarini tahlil etib berildi;

- Shayboniylar davrida Buxoroning poytaxt sifatidagi ahamiyatini ko'rsatib berildi;

- Mamlakat ichida ijtimoiy hayotni tartibga solishga imkon beruvchi islohotlar o'tkazilganligini ko'rib chiqildi.

Mamlakatda yer-suvni qaytadan taqsim qilinganligini tahlil etib o'tildi;

- Buxoroning qadimiy mavqei tiklanganligini ochib berildi hamda ilmiy hulosalar chiqarildi.

Shuningdek to'plangan ma'lumotlardan oily o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixi fanidan darslar o'tishda, kurs ishi, referat, mustaqil ishlarni tayyorlashda va amaliy mashg'ulotlar ishlanmasini yaratishda qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

1. Shayboniylar davlatining tashkil topishi.

1.1. Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahr va Xurosonga yurishi

Buyuk Amir Temur tomonidan Oltin O'rdaga berilgan kuchli zarba bir vaqtlar qudratli bo'lgan davlatning zaiflashuvi va parshalanib ketishiga sabab bo'lgan asosiy omillardan biridir. Uning o'rniga Volganing o'rta va quyi oqimida Qozon va Ashtarxon hamda Turkiya hukmronligi ostidagi Qrim yarim orolida Qrim xonliklari vujudga keldi. O'z navbatida Amir Temur vafotidan so'ng uning avlodlari o'rtasida o'zaro urushlar Amir Temur asos solgan buyuk saltanatning parchalanib ketishiga sabab bo'ldi va shimoldan kelgan ko'chmanchi qabilalarning bu yerlarni osonlikcha egallab olishlari ushun qulay imkoniyatlar yaratdi.

XV asrning 20-yillarida Dashti Qipchoqda ko'chmancshi qabilalar o'rtasida olib borilgan o'zaro janglarda Abulxayrxon boshchiligidagi Shayboniylar nomi ostida urug' tarix maydoniga chiqdi. Abulxayrxon 1428 yilda xon etib saylandi va qirq yil (1428—1468) hukmronlik qildi. U Sirdaryoning quyi oqimida Sig'noq Oqqo'rgon, Arko'k, O'zgan kabi shaharlarni egallab oldi va bu hududlardan doimo Movarounnahrta tahdid solib turdi. Hususan, Abulxayrxonning nabirasi Shayboniyxon Muhammad Shohbaxt (1451—1510) davrida bu davlat ancha mustahkamlandi va hududlari kengaydi. Shayboniyxon 1451 yilda tug'ilgan. Abulxayr vafot etgach, uning o'gli Shayx Haydarga qarshi qo'zg'olon bo'lib, u o'ldirilgan. Shayh Haydarning o'g'illari Shayboniyxon va Mahmud Sultonni yaqin kishilari Ashtarxon xoni Qosimning saroyiga olib borib yashirganlar. Bundan xabar topgan sultonlar o'z qurollarini Qosimga qarshi qaratganlar. Ammo shahzoda Muhammad Shayboniy o'z ukasi bilan qamal qilingan Ashtarxondan omon-eson chiqib Dashti Qipchoqqa yetib kelgan. U XV asrning 80 yillarida bobosi Abulxayrxon birlashtirgan Dashti Qipchoq erlarini birlashtirish va hokimiyatni qaytatdan tiklash uchun kurash olib boradi. Bu kurashning dastlabki bosqichida temuriylar Shayboniyxonga katta yordam va madad berganlar. Tarixiy manbalarda Shayboniyxon o'z ukasi bilan bir necha marta Movarounnahr hukumdorlari va noiblari —Turkiston va O'torni idora qilgan noib Muhammad Mazid tarxon, Samarqand hokimi Ahmad Mirzolar huzurlariga kelganda yahshi

kutib olganliklari va homiylik qilganliklari ko'rsatiladi. Shayboniyxon bir necha vaqt Buxoroda ham yashagan va Dashti Qipchoqqa borib kelib turgan. Buxoroda bo'lganida Shayboniyxon ma'rifatdan saboq olgan, ilm va she'riyatni sevib o'rgangan.

Sig'noq shahri (Qizil O'rdaga boradigan yo'ldagi Tuman-Ariq degan sobiq poshta bekatiga 10 km yetmasdan, Sig'noq shahrining xarobalari hozir ham mavjud) Shayboniyxonga jangsiz taslim bo'lgan. Mang'it hokimi Muso-Mirzo (No'g'ay)ning yordami evaziga Shayboniy qozoqlar xoni Burunduqxonni (1481—1511) tor-mor qiladi. Ammo keyin o'zi qattiq zarbaga uchrab, Mang'ishloq yarimoroliga qochadi.

Samarqand hokimi Ahmad Mirzo mo'g'ullarning tinimsiz qilib turgan hujumidan tinkasi qurib Shayboniyga yordam so'rab murojaat qiladi. Shu bahona bilan Shayboniyxon Movarounnahrda ikki bosqichda yani 1488-1499 yillarda birinchi marta, 1499-1507 yillarda ikkinchi marta yurishlar qiladi va birin-ketin O'tror, Yassi (Turkiston), Buxoro, Samarqand hamda Farg'ona hududlarini egallab oladi.

1498 yilda Buxoroda turgan temuriylardan bo'lmish Sulton Ali Samarqandga kirib keladi. Uning ixtiyorida qurolli kuch yo'q bo'lib u amirlar qo'lida shunchaiki bir qo'g'irchoq edi, holos. Mamlakatdagi bunday bosh-boshdoqlik, boshqaruv tizimining tez-tez bir qo'ldan ikkinchi qo'lga o'tib turishi, xalqning og'ir iqtisodiy ahvoli Movarounnahr tuprog'idan temuriylarni surib chiqarishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan Mahammad Shayboniyxon bu hududlarni egallab olishlariga yordam berdi. Muhammad Shayboniyxon 1500 yilda jangsiz Samarqandni egalladi. U shaharni talaydi, temuriy shahzodalarni qilichdan o'tkazadi. Aholiga katta va og'ir soliqlar solinadi. Bu hol Samarqand shahri aholisining norozilik qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. Qo'zg'olonga Abulmakarim boshchilik qiladi. Shayboniyxon bu davrda Samarqandda 600 kishini qoldirib o'zi Ko'limalikda dam olayotgan edi. Shunda Samarqand shahri ahli 19 yoshli Bobur Mirzoni Samarqandga chorlab, shahar darvozalarini unga oshib berdilar.

Shayboniyning Samarqand shahrida qoldirib ketgan 600 kishidan iborat askarlari qirib tashlandi.

Bobur Mirzo shoh etib ko'tariladi. Samarqand tumanlari, Qarshi, G'uzor hududlari ham Bobur Mirzo hukmronligini tan oldi. Samarqandda sodir bo'lgan voqealardan xabar topgan Muhammad Shayboniyxon Turkiston atroflaridan katta qo'shin to'plab yana Samarqand sari yurdi. Bu davrda Samarqandda og'ir vaziyat vujudga kelgan edi. Qurg'oqchilik tufayli shahar oziq-ovqat va yem-hashak tanqisligiga uchradi. Natijada Bobur Mirzo lashkarlarining bir qismini tarqab ketdi. U oz sonli qo'shin bilan qolgan edi. Bundan foydalangan Shayboniyxon hujum boshlaydi. Bobur Mirzo Kech, Toshkentdan kelayotgan yordamchi kuchlarni kutmasdan jangga kiradi. Zarafshon qirg'og'ida bo'lgan jangda Bobur Mirzo yengiladi va Samarqandda yashirinadi. Shayboniyxon Samarqandni uzoq vaqt qamal qiladi. Shaharda misli ko'rilmagan og'ir ahvol yuzaga keldi. Bobur Mirzo och-yalang'och qolgan Samarqandni yarim tunda tashlab Toshkent tomon otlandi. U tog'asi Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon huzuriga Samarqandni qaytarib olishda yordam so'rab boradi. Biroq Muhammad Shayboniyxon Bobur Mirzo, Sulton Mahmudxonning birlashgan qo'shinlarini engadi. Bobur Mirzo Mo'g'ilistonga qochishdan boshqa chora topa olmadi. Bu davrda Andijon ham Shayboniylar tomonidan egallangan edi. Muhammad Shayboniyxon 1505 yilga kelib butun Movarounnahrni egallab bo'lib, Xurosonni qo'lga kiritish maqsadida tayyorgarlik ko'rayotgan edi. Bobur Mirzo 1504-1507 yillar oralig'ida Mo'g'iliston va Movarounnahr yerlarida quvg'inda yuradi va nihoyat oz sonli lashkar bilan Hisor tog'laridan oshib, Qobul shahrini egallaydi. U boshidan juda og'ir kunlarni o'tkazdi. Bobur Mirzoning qizi Gulbadanbegim (1523-1603) o'zining «Humoyunnoma» asarida bunday deb yozgan edi; «To'liq 11 yil davomida Movarounnahr o'lkasida, chiqatoy, temuriy va o'zbek sultonlari bilan shunday janglar va mudoffalar qiladilarki, ularning sanog'ini batafsil bayon qilishga qalam ojiz va nuqsonlidir. Oxirgi hamrohlari va qarindoshlari bo'lib, ja'mi 250 ga yaqin kishi, piyoda, yelkalarida chopon, oyoqlarida choriq, qo'llarida tayoq

bo'lgani holda beyarog', xudoga tavakkal qilib Badahshon va Qobulga qarab yo'l oldilar»¹

Bobur Mirzo Afg'onistondagi tarqoq qabilalarni birlashtirdi. Qobuldan so'ng G'azna egallandi. Qobul Bobur Mirzo davlatining poytaxti edi. U 1508 yilda rasmiy suratda o'zini Afg'oniston davlatining podshosi deb e'lon qiladi. Hatto Xuroson hukmdori Husayn Boyqaro Bobur Mirzo bilan birgalikda Muhammad Shayboniyxonga qarshi jangga o'tlanishga o'zaro kelishib olgan edi. Faqat Husayn Boyqaro Mirzoning 1506 yildagi kutilmagan bevaqt o'limi bu rejaning amalga oshuviga imkon bermadi. Muhammad Shayboniyxon Movarounnahr so'ng Xurosonni egallab, bu hududlarni temuriylardan tortib oldi.

Shayboniyxonning janub tomon ilgarilab borayotganligini Eron shohi Ismoil ziyraklik bilan kuzatib turar va u Shayboniyxonning bu harakatini to'xtatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Shoh Ismoil bilan Shayboniyxonning to'qnashuvi aniq bo'lib qoldi. Eron hukmdori Ismoil Ardabel shahridagi safaviylar xonadonidan edi. U Ozorbayjondagi turk qabilalari ko'magidan foydalanib uncha katta bo'lmagan, biroq kuchli va tartib-intizomli qo'shin tuzaoldi.

1510 yilda Sirdaryo bo'ylarida mug'ullar bilan qozoqlarning birlashgan kuchlaridan talofat ko'rgan Shayboniyxonning 17 ming kishilik qo'shini Marvga kirib Movarounnahrdan keladigan yordamni kutadi. Bundan xabar topgan shoh Ismoilning 70 ming kishilik qo'shini Marv qo'rg'onini qurshovga oldi. Biroq Shayboniyxon tomonidan qattiq mudofaa qilingan shaharni qo'lga olaolmagan Ismoil hiyla ishlatdi va qal'ada himoyalananayotgan Shayboniyga; «Agar mard bo'lsang tashqariga chiqib, men bilan maydonda olishasan», deydi. Erkaklik va mardlik g'ururi tutgan Shayboniyxon oz sonli qo'shin bilan Ismoilni orqasidan quvlashga tushdi. Eronlik safaviylar Marv yaqinidagi Murg'ob daryosi qirg'og'ida, Tahrirobod deb atalgan joyda daryo ustidagi ko'priklarni buzib, Shayboniylarni tuzoqqa tushiradilar. Ko'p o'zbek sarkardalari qirib tashlanadi. Mag'lubiyatga uchrab yaralangan Shayboniyxon yaqin bir qishloqqa chekinadi. Eronliklar Shayboniyxonni qo'lga olib 1510 yil 12 dekabrda uning boshini tanasidan judo

¹ Gulbadanbegim. «Humoyunnoma». T., 1959. 24-25-bet.

etib, nayza uchiga ilib qo'yadilar. Zaki Validiy To'g'onning yozishicha, shoh Ismoilning buyrug'i bilan Shayboniyxonning bosh suyagidan sharob qadahi yasaladi va u oltin bilan bezatilib, Misr sultoni Falajga sovg'a sifatida yuboriladi. Chunki Falaj ham Shayboniyxon singari sunniy mazhabida edi va uni juda sevardi.¹ Arab tarixchisi Ibn Ayos «Badoiy o'z-zuhur» nomli asarida keltirishicha Shayboniyxonning bosh suyagidan yasalgan qadah ustiga shoh Ismoil quyidagi satrlarni yozdirgan ekan;

Alsayf val-hanjar rayxonano,
Tuf a'lo almarjis val-as.
Mudominoman dam a'donno,
Vahasno jumjumatu'al-ras!

Arabcha bu satrlarning ma'nosini quyidagicha sharhlash mumkin;

Qilich va hanjar bizning hidimizdir,
«Tuf» bo'lsin nargiz va sumbulimizga.
Dushmanning qoni ichkiligimizdir,
Aylansin bosh suyak qadaximizga!

Shayboniyxonning bosh suyagidan yasalgan tilla qadahning Misrga yetib kelishi sunniy mazhabidagi aholi o'rtasida katta norozilik o'yg'otdi. Misr sultoni Qansu Gavri o'sha bosh suyakni katta hurmat bilan ko'mdiradi. Yana Ibn Ayosning aytishisha, 200 dan ortiq Misrli shoir shoh Ismoilning yuqorida keltirilgan she'riy to'rtligiga qarshi javob she'riy to'rtliklar yozdilar. Masalan, shayx Nosuriddin Tahhan qalamiga mansub she'riy javob to'rtlikning o'zbekcha tarjimai quyidagishadir;

Gar hidlab yursang huchbo'y narsalarni
Ko'paytirarsan mudhish qo'rquvlarni.
Jangda dushmanni o'ldirish sharafdir,
Faqat it yalaydi bosh suyaklarni!

Shayboniy taqdiridan voqif bo'lgan Bobur Mirzo qalbida Shoh Ismoil yordamida Movarounnahrni qaytadan egallash umidi paydo bo'ladi. Ana shu ezgu

¹ Ahmad Zakiy Vakidiy. Bugungi turk eli (Turkiston vf yaqin tarixi). Istanbul, 1981, 2-nashri, 55-56-betlar.

niyatida u Shoh Ismoil elchisini Qobulda juda ochiq chehra bilan kutib oldi. Ismoil elchilari Bobur Mirzoga sovg'a tariqasida shialar odatiga ko'ra o'ralgan salla qalpoqni tortiq qiladilar. Bu albatta diplomatiya o'yini edi. Atrofdagilarning nigohi Bobur Mirzoga qadalgan; naxotki Bobur Mirzo o'zi sunniy bo'laturib shialar qalpog'ini kiysa... Shu payt elchilar shoh Ismoil Bobur Mirzoga birgalikda Samarqandga qo'shin tortishni taklif qilganligini aytadilar. Bobur mirzo Shoh Ismoil taklifini qabul qiladi va diplomatik mahoratini ishga solib; «Inshoollox Samarqandni egallasak bu qalpoqni kiyamiz», deb og'ir vaziyatdan chiqib ketadi. Chunki agar shu paytda u qalpoqni kiyganida barcha sunniylar Bobur mirzodan yuz o'girar edilar. Shoh Ismoil o'zaro kelishuvga asosan Samarqand taxti uchun kurashda Bobur Mirzoga har tomonlama yordam berdi. U Bobur Mirzoni qurollantirdi, unga sipohlar berib jangga otlantirdi. Bobur Mirzo 1512 yilda Shoh Ismoil yordamida Samarqandni qo'lga kiritdi. Ammo bu safar Samarqand aholisi Boburni qo'llab-quvvatlamadi. Xalq uni bu gal shiddatli hukmdor avlodi, qo'rqmas sipoh, xalqparvar shoir va mutafakkir avvalgi Bobur Mirzo deb emas, balki shoh Ismoilning qo'g'irchoq gumashtasi, Samarqand sunniy aholisining nazarida mansab, hokimiyat uchun har narsaga tayyor, o'z elidan, dinidan qaytgan shialar xizmatkori sifatida qabul qiladi. Bunga Bobur Mirzoning yo'l qo'ygan xatolari va noto'g'ri xatti-harakatlari asosiy sabab bo'ldi. U Samarqandni egallagach, shoh Ismoilni oliy hokim deb e'lon qiladi. Shiya imomlari nomi bilan tangalar zarb qila boshladi, Movarounnahrni Eron manfaatlariga bo'ysundiradi.

Albatta, bu hol sunniy mazhabidagi Movarounnahr aholisining g'azabini qo'zg'adi. Bu orada Bobur Erondan kelgan qo'shinlarga javob berib ularning boshliqlariga katta-katta sovg'a-salomlar ulashadi. Shu tufayli yuzaga kelgan qulay fursatdan foydalangan va xalq ommasining kayfiyatini to'g'ri hisobga olgan Shayboniylar urug'idan bo'lgan Shayboniyzodalar Ubaydulla Sulton boshchiligida birlashib 1512 yil iyun- noyabr oylarida katta qo'shin bilan Movarounnahrda bostirib kirdilar. Bobur Mirzo 50 ming kishilik qo'shini bilan qarshi chiqadi, ammo Samarqand yaqinidagi Saripulda yengilib Hisorga qochdi. Shayboniy avlodlari Samarqandni uzil-kesil egalladilar. Shoh Ismoil Boburga yordam berish

maqsadida o'zining eng tajribali va nomdor sarkardalaridan bo'lgan amir Ahmad laqabi "Najmi-soniy" («Ikkinchi yulduz») boshchiligida qo'shin yuboradi. Eron qo'shini o'z yo'lida Xuroson amirlarining madad otryadlarini o'ziga qo'shib olib, Termiz yonida Jayhundan kechib o'tdi va Bobur Mirzo bilan qo'shildi. Birlashgan Eron va Bobur qo'shinlari Qarshi shahrini o'rab oldi va Amir Ahmad shahar aholisini butunlay qirib talashga buyruq berdi. Qarshi shahrida 15 ming aholi qirib tashlandi. Qariyalari bolalarni ham ayamadilar. Bu paytda Ubaydulla, Muhammad Temur sulton va boshqa o'zbek sultonlarning fursat poylab Buxoro yaqinida raqiblarini kutib turar edilar. Amir Ahmad bundan bexabar holda bemalol Buxoro tomon yuradi va G'ijduvonni qamal qila boshlaydi. Kutilmaganda u o'zbek sultonlarini hujumiga duch keldi va tez orada yakson qilindi. Bu jangda amir Ahmadning o'zi o'ldiriladi. Eron qo'shinidan ozgina qismi qochib ulgurdi. Shundan so'ng Bobur Mirzo bilan Shoh Ismoil o'rtasidagi ittifoq barham topdi. Bobur Mirzo endi Movarounnahrda butunlay umidini uzib Qobulga qaytdi. U 21 yil maboynida, ya'ni 1526 yilga qadar Qobulni boshqargan. So'ngra Bobur Mirzo Qobulni ikkinchi o'g'li Kamron Mirzoga qoldirib o'zi Hindiston sari yurish boshlaydi va buyuk boburiylar sulolasi saltanatiga asos soladi.

«Shayboniylar sulolasi» asoschisi (1500-1510), Abulxayrxonning nabirasi, Budoq sultonning o'g'li. Tug'ilganda unga turkiylar odatiga ko'ra ikki ism - Muhammad (arabcha) va Shayboniyxon (turkiycha) ismlari qo'yilgan. Abulxayrxon unga Shohbaxt deb laqab qo'ygan. Shayboniyxon g'oyat katta jismoniy kuchga, harbiy tashkilotchilik qobiliyatiga ega edi. «Boburnoma» asarida esa u «Shayboqxon», ya'ni «kuch-qudrat egasi» deb ataladi.¹

Shayboniy yollanma qo'shin boshlig'idan xon darajasiga ko'tarilgan tarixiy shaxsdir. U nafaqat sarkarda balki, Shohbaxt, Shoyboq, Sheboni, Shohibek, Shayboniy taxalluslari bilan g'azal, ruboiylar bitgan shoir hamdir. Shayboniyxonning adabiy me'rosidan bizgacha bir nechta o'zbekcha g'azal, ruboiy va «Bahr-ul xudo» (1508-yil 14-may Bastom, Domg'omda yozib tugallangan) nomli dostoni va 1507-1508-yillarda yozilgan o'g'li valiabd Temur sultonga

¹ Axmedov B.A. O'zbekiston xalqlari tarixi. T.: 1991 y. 65- bet

atalgan pand-nasihatlardan iborat kitobi mavjud (uning yagona nusxasi hozir Turkiyada saqlanadi).

U yoshligida otasi Budoq sulton va onasi Qo'zibegimdan yetim qolgach, otasining sodiq xizmatkori Qorachabek oilasida tarbiyalanadi. Keyinchalik Shayboniyga Turkiston va O'tror hukmdori Muhammad Mazid tarxon homiylik qiladi. Shayboniy yoshligida Buxoro madrasasida ta'lim oladi.

Shayboniy Dashti Qipchoqqa qaytib borib lashkar to'plashga muvaffaq bo'lgan. U buyuk davlatni tiklash yo'lida xatti-harakatni dastlab o'z qo'shini bilan temuriylarga yollanma qo'shin lashkarboshisi sifatida xizmat qilishdan boshlagan. Dastlab Shayboniy parchalangan Amir Temur davlatining shimoliy chegarasida noyiblik qilayotgan homiysi Mazid tarxondan uni o'z xizmatiga olishni so'raydi. Avvaliga bu taklifga rozi bo'lgan Mazid tarxon tezda Shayboniyning o'z hokimiyatiga xavf solishi mumkinligini anglab yetadi. Natijada, u Shayboniyning Buxoro hokimi Darvish Muhammad tarxon ixtiyoriga jo'natib yuborish orqali undan qutuladi. Chunki, Darvish Muhammad bunday yordamga muhtoj edi. Uning xizmatidan boshqa hukmdorlar ham foydalanganlar. Shayboniy o'z qo'shini bilan Mo'g'iliston, Movarounnahr hamda Xorazm hukmdorlariga xizmat qilib, ularning qo'shnilariga va ichki raqiblariga qarshi kurashdi. Bu kurashlarda Shayboniy o'zining mohir lashkarboshilik qobiliyatini namoyon qiladi. Uning bunday turmush tarzini yozma manbalarning mualliflari «qozoqlik» ya'ni «o'z xalqi va qavmidan ajralib ketgan odamlar, taxt uchun kurashda yengilsa-da, ammo o'z huquqidan voz kechmagan va o'z tarafdorlariga boshchilik qilib, vuqoliflari bilan qulay fursat poylab kurashadigan sulola vakili» deb atashgan edi. Turli hukmdorlarga xizmat qilish Shayboniyga Temuriylar davlatidagi vaziyatni yaxshi bilib olishiga imkon berdi. Movarounnahr hukmdorlari va zodagonlari uning xizmatidan eng ko'p manfaat ko'rishi natijasida Shayboniy Movarounnahr zodagonlari orasida mashhur bo'lib ketgan edi.

Shayboniy ko'chmanchi o'zbeklar davlatini qayta tiklash yo'lida kurash olib borgan, biroq „o'zbek-qozoq“ qabilalari tomonidan kuchli qarshilikka duch kelgan. Bu qabilalar Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlagan qabilalarni asta-sekin

janubga tomon siqib chiqqanlar. Shayboniy bobosi Abulxayrxon vafotidan parokanda bo'lib ketgan qabilalarni birlashtirdi va beayov qonli urushlar natijasida 1480-yilda ko'chmanchi o'zbeklar davlatini qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi. 1487-1488-yillarda Sayram, O'tror va Turkiston shaharlarini hamda qo'rg'onlarni egallab, Movarounnahr yaqinida mustahkam o'rnatib oldi. Bu qo'rg'onlar kelgusida unga Movarounnahrni istilo qilish uchun tayanch vazifasini o'tagan.

Shayboniyxon ko'chmanchilarning jangovar an'analari bilan O'rta Osiyo shaharlarining madaniy yutuqlarini birlashtira olishi uning istilochilik yurishlari muvaffaqiyatli chiqishiga yordam berdi.¹

Shayboniyxon 1497-yilda Movarounnahrda o'zining dastlabki yurishini uyushtirgan. U katta kuch bilan Samarqandga yurish qildi, lekin shaharni ololmasdan, Qarshi va Shahrisabzga hujum qilib katta o'lja bilan qaytib ketgan. Shayboniyxon 1499-yildan Movarounnahrni zabt qilishni boshladi. 1499-yilda u jangsiz Buxoroni va 1500-yilda temuriylar davlatining poytaxti bo'lmish Samarqandni egallaydi va Sultonali mirzoni qatl ettiradi. 1501-yilda esa Boburni Ko'hak daryosi bo'yidagi jangda yengib, Samarqandda uzil-kesil o'rnatib oladi. U endi katta qo'shin to'plab butun Movarounnahr hududlarini egallash uchun tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Shayboniyxon 1503-yilda Sirdaryoning yuqori tomoniga yurish qilib, Mahmudxon, Ahmadxon va Bobur boshchiligidagi mo'gullar, ularning ittifoqchilari bo'lgan qalmoqlarning birlashgan kuchlariga duch keldi. Arxiyon shahri yonida bo'lgan shiddatli jangda ularni tor-mor keltirib, Toshkent va Shohruxiya shaharlarini ishg'ol qildi. Bu shaharlar hokimligiga amakilari Ko'chkunchi sulton bilan Suyunchxo'jani tayinladi. 1504-yil bahorida Farg'onani ishg'ol qildi. Samarqand shahri - Shayboniyxon davlatining poytaxti etib belgilandi. Shundan so'ng Shayboniyxon ishg'ol qilgan hamma viloyatlarga qarindosh urug'laridan yoki o'zbek qabilalarining yuqori tabaqa vakillaridan hokimlar tayinlaydi. Shayboniyxon Movarounnahrda o'z ahvolini yaxshilab olganidan keyin 1504-yilda Xusravshoh hukmronlik qilib turgan Qunduz shahrini

¹ Muhammad Solih Shayboniy-noma. T' G'. G'ulom" 1989. 43-bet

bo'ysuntirdi, so'ngra Xuroson va Xorazm sultoni Husayn Boyqaro davlatini zabt etishga hozirlik ko'rdi. 1504-yilda Shayboniyxon Buxorodan Xorazmga yurish boshladi. O'n oy davom etgan qattiq va shiddatli qamaldan keyin 1505-yilning avgust oyida Urganch egallandi. O'sha yili kuzda Shayboniyxon qo'shinlari Xuroson tuprog'iga bostirib kirib Maymana va Faryobga yetib bordi. 1506-yilda esa Balxni, 1507-yil may oyining boshlarida Shayboniyxon Hirotni ishg'ol qiladi. Shundan so'ng Hirot o'zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatidagi nufuzini yo'qotdi. Xurosonning bo'ysuntirilishi bilan amalda Muhammad Shayboniyxon butun mintaqani yagona bir markaz - Samarqand qo'l ostida birlashtira oldi. 1508-yil bahorida Shayboniyxon Jon ostonalarida temuriylarning so'nggi qo'shinini tor-mor keltirib, ularning O'rta Osiyodagi barcha ildizlariga barham beradi. Shu tariqa, u XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab temuriylar amalga oshira olmagan vazifani bajara oldi. Shayboniy 1501-yilda yuz bergan «Sarapul jangi» bilan Movarounnahr taxtini olgan bo'lsa, «Marvichak urushi» bilan butun Xurosonni o'z tasarrufiga kiritdi. 1508-1509-yillarda o'zbek qo'shinlari qozoqlar ustiga hujum qilib, har gal qo'llari baland kelgan. Shunday qilib, Shayboniyxonning temuriylarga qarshi 1500-1509-yillarda olib borgan shiddatli urushlar oqibatida Movarounnahr, Xorazm va Xurosonni o'z ichiga olgan «Shayboniylar davlati» vujudga keldi.

1510-yilda Shayboniyxon Safaviylar davlatining hukmdori Ismoil Safaviydan Marv yaqinidagi Murg'ob daryosi qirg'og'ida, Tahrirobodda mag'lubiyatga uchraydi, eron safaviylari Shayboniyxonni qo'lga olishadi. Shoh Ismoil buyrug'iga ko'ra, 1510-yil 12-dekabrda uning kallasi olinib, po'sti shilinadi, po'sti ichi somon bilan to'ldirilib, Safaviylarning G'arbdagi dushmanlari bo'lmish Usmonli turklar hukmdori Sulton Boyazid II huzuriga jo'natiladi. Shayboniyxonning bosh chanog'i esa shoh Ismoil uni oltin bilan qoplab, bazm-u jamshidlarda unga may quyib, qadah o'rnida foydalangan. Uning boshsiz tanasi Samarqanddagi Baland Sufaga dafn qilingan.¹

¹ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T" Fan" 2001. 46-47 betlar

1.2. Buhoro xonligining tashkil topishi

Shayboniyxon vafotidan soʻng uning avlod-ajdodlari oʻrtasida toju-taxt, hokimiyat, mol-dunyo va davlat talashib oʻzaro qonli urushlar avj oldi. 1510-1530 yillarda Shayboniyxonning amakisi Koʻchkinchixon hokimlik qiladi. Unga oʻgʻli Abdusaid (1530-1533) va jiyani Ubaydullaxon (1533-1539) merosxoʻr boʻldi. Abdullaxon I ning qisqa hukmronligidan (1539-1540) soʻng Movarounnahrda qoʻshhokimiyatchilik vujudga keldi. Bunga sabab, Buxoroda Ubaydullaxon oʻgʻli Abdullazixon (1540-1550), Samarqandda esa Koʻchkinchixon oʻgʻli Abdulatifxon (1540-1551) taxt boshqarganlar. Hokimiyat talashib kurash misli koʻrilmagan choʻqqiga koʻtarildi. Shayboniyxon avlodlarining har birida 10-12 tadan oʻgʻil farzand boʻlib, ularning har biri taxt uchun vorislik qilishga daʼvogar edi. Shu bois Movarounnahr hududi bir necha boʻlaklarga boʻlinib ketdi. Karmana va Miyonqalʼada Iskandar Bahodir, Balxda Pirmuhammad, Qarshida Sulton Qilich Qora, Hisorda Shayboniyxonning nabirasi sulton Burxon hokimlik qiladi. 1556 yilda Abdullatifxon vafot etgach Samarqand taxtini Baroqxon qoʻlga kiritib, Navroʻz Ahmadxon nomi bilan besh yil hukmronlik qiladi.¹

1530-1533-yillarda shayboniylar hukmdori. Uning davrida Movarounnahrda shayboniylar oʻrtasida Buxoro va Samarqand taxti uchun oʻzaro nizolar davom etgan. U mashhur tasavvuf olimi boʻlmish oʻz vaziri Ofoq Xojaning mudiri edi

Buxoro xoni, shoir. Shayboniylar sulolasidan. Muhammad Shayboniyxonning jiyani, Mahmud Sultonning oʻgʻli. Toʻliq ismi Abulgʻoziy Ubaydulloh Bahodirxon ibn Mahmud Sulton ibn Shoh Budogʻ Sulton ibn Abulxayrxon. Otasining iltimosiga koʻra, unga Xoja Ubaydulloh Ahror oʻz ismini bergan. Tasavvuf boʻyicha dastlabki saboqni otasining piri Mavlono Muhammad Jozidan olgan. U ga oʻz davrining mashhur ulamolari Fazlulloh ibn Roʻzbehon, Maxdumi A`zam, Mavlono Muhammad Azizon, Mavlono Xoja Muhammad Sadr va boshqalar ustozlik qilgan. Xususan, unga davlat arbobi va sarkarda amir

¹ Asqarov A. «Oʻzbekiston tarixi» T. «Oʻqituvchi» 1994 y 33-bet

Abdulla Yamaniy (Buxoroda Mir Arab nomi bilan mashhur bo'lgan) harbiy san'atdan saboq bergan va o'ziga murid qilib olgan.

Xorazm va Buxoro hokimi bo'lgan otasi Mahmud Sulton Qunduzda vafot etgach (1504), unga O'rusbek Do'rmon (1512-yilda Ko'li Malikda bo'lgan jangda o'ldirilgan) otaliq qilib tayinlangan.

Ubaydullaxon amakisi Shayboniyxonning Xorazm (1505), Balx (1506), Hirot va Mashhad (1507)ga qilgan harbiy yurishlarida qatnashgan.

Dastlab safaviylar qo'shinining Movarounnahr ichkarisiga bostirib kirishidan cho'chigan Ubaydullaxon va Muhammad Temur Sulton (Shayboniyxonning o'g'li) shoh Ismoil I bilan elchilar almashib, sulh tuzishga uringanlar. Shayboniylar sulolasining xoni Ko'chkunchixonning asosiy noibi (1510-yildan) va Buxoro hokimi (1504-yildan) sifatida Ubaydullaxon dushmanga qarshi kurashga otlangan. 1511-yilda bo'lgan jangda yengilgan Ubaydullaxon va Ko'chkunchixon, Samarqand hokimi Suyunchxo'jaxon, shuningdek, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton o'z yaqinlari bilan Turkiston shahriga chekinadilar.

1512-yil 28-aprelda Ko'li Malik jangida Ubaydullaxon g'alaba qozonib, Buxoro va Samarqandni egallaydi. 1512-yil bahorida Ubaydullaxonning shijoati natijasida Movarounnahr yana shayboniylar qo'liga o'tdi. Biroq Ismoil I yuborgan Najmi Soniy boshchiligidagi 60 ming kishilik safaviylar qo'shiniga suyanan Bobur 1512-yil kuzida G'uzor va Qarshini egallaydi. Najmi Soniy qo'shini G'ijduvonni qamal qilishga kirishdi. Ubaydullaxon va Jonibek Sulton Karmanaga; Ko'chkunchixon va Temur Sulton Miyonkolga chekinib, hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'rishadi. 1512-yil 24-noyabrdagi G'ijduvon jangida Ubaydullaxon boshchiligidagi qo'shin g'alaba qozongan.

1513-yil yanvarda Ubaydullaxon boshchiligidagi qo'shin Xurosonga harbiy yurishlar qilib, safaviylarga kuchli zarbalar berdi. 1513-yil 11-martda Ubaydullaxon Marvni egallaydi. Bu orada Ubaydullaxon Xorazmni ham egallab, o'g'li Abdulazizxonni hokim qilib tayinlaydi. Uzoq davom etgan harbiy to'qnashuvlardan so'ng Mashhad, Hirot (1529) va boshqa shaharlar egallandi.

Ubaydullaxon Hirotdagi murakkab vaziyatni tartibga solish (bu yerda shialarning ta`siri kuchayib ketgan edi) va uning Buxoro bilan aloqalarini mustahkamlashga katta e`tibor qaratgan. Ko`chkunchixon vafot etgach, uning o`g`li Abu Saidxon davrida ham Ubaydullaxon noiblik vazifasida qolgan.

1533-yilda Abu Saidxon vafotidan so`ng, turkiy an`anaga binoan sultonlar ichida eng yoshi ulug`i Ubaydullaxon Buxoroda shayboniylar sulolasining xoni qilib ko`tarilgan. Poytaxt ham Samarqanddan Buxoroga ko`chirilib, davlatning nomi rasmiy ravishda Buxoro xonligi deb atalgan. Ubaydullaxon hukmronligi davrida Buxoroning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatidagi mavqei kuchaydi. Buxoroda Mir Arab madrasasi, Mirak Said G`iyos bog`i, Ko`hak (Zarafshon) daryosi ustida Mehtar Qosim ko`prigi va boshqa inshootlar qurildi.

Ubaydullaxon yassaviya va naqshbandiya tariqatlariga e`tiqod qilib, shayx sifatida muridlar ham tarbiyalagan. Ubaydullaxon «Ubaydiy», «Qul Ubaydiy», «Ubaydulloh» taxalluslari bilan o`zbek, fors va arab tillarida ijod qilgan. Uning uchala tildagi devonlarini o`z ichiga olgan kulliyoti keyinchalik Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko`chirilgan (1583). Ubaydullaxonning turkiy devonida 310 g`azal, 430 ruboiy, 11 tuyuq, 18 masnaviy, 7 muammo, 2 yor-yor mavjud. Shuningdek, devondan diniy-tasavvufiy va axloqiy-didaktik ruhdagi “Omonatnoma”, “Shavqnoma”, “G`ayratnoma”, “Sabrnoma” manzumalari o`rin olgan. Forsiy devonida esa 163 g`azal, 418 ruboiy, 7 qit`a, 1 fard, 1 masnaviy, 1 tarje`band va 3 muammo bor. Arab tilidagi merosi 35 ga yaqin g`azal, qit`a va fardlardan iborat. Ubaydullaxon Ahmad Yassaviy asos solgan hikmatnavislik an`anasini rivojlantirgan. Undan 1786 baytdan iborat 220 dan ortiq hikmat etib kelgan. Ubaydullaxon ijodida diniy-tasavvufiy g`oyalar yetakchilik qiladi. Ubaydullaxon o`zbek va fors adabiyotidagi yirik ruboiynavislardan hisoblanadi. Uning bu 2 tildagi ruboiylari 850 ga yaqin. Xususan, o`zbek adabiyotida ruboiyning Boburdan keyingi taraqqiyoti Ubaydullaxon nomi bilan bog`liq. Shoir she`rlarida o`zbek tilining boy imkoniyatlaridan, o`ziga xos xususiyatlaridan mahorat bilan foydalangan.

Ubaydullaxon Buxoro yaqinida joylashgan Bahouddin majmuasidagi Daxmai shohon (Shohlar daxmasi)dagi shayboniylar xilxonasida dafn etilgan. Ubaydullaxon kulliyoti yagona nusxada O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida, «Devoni Ubaydulloxon» qo'lyozmasi Turkiyaning Nuri Usmoniya kutubxonasida, «Masoil us-salot» nomli terma bayozi Ko'niyodagi Izzatqyun xususiy kutubxonasida saqlanadi.

Shayboniylardan bo'lgan Movarounnahr xoni. Abulxayrxonning nevarasi, Ko'chkunchixonning o'g'li.

1514-1540-yillarda Abdullaxon I Yassi (Turkiston)da hokimlik qilgan. 1540-yil martda shayboniy Ubaydullaxon vafot etgach, Buxoro xonligi 3 qismga bo'lingan davrda Samarqandda hukmronlik qilgan. Uning qisqa hukmdorligidan so'ng mamlakatda qo'sh hokimiyatchilik vujudga kelgan, ya'ni bir davlatda ikki hukmdor paydo bo'ldi.

Abdullaxon I Samarqandda Registon yaqinidagi Chihil (Chil) Duxtaron qabristonida dafn etilgan. Uning vafotidan so'ng Samarqanddagi shayboniylar taxtiga ukasi Abdulatifxon o'tirgan.¹

Buxoro xoni bo'lgan shayboniy hukmdor (1540-1550). Ubaydullaxonning o'g'li. Dastlab 1538-1539-yillarda Xorazm hokimi bo'lgan. 1539-yilda otasi Ubaydullaxon vafot etgach, shayboniylar sulolasi vakillari o'rtasida o'zaro nizolar avjiga chiqdi. Buning oqibatida Abdullaxon I ning qisqa hukmronligi (1539-1540)dan so'ng mamlakatda qo'shhokimiyatchilik vujudga kelib, Abdulazizxon Buxoro xoni (1540-1550), Ko'chkunchixonning o'g'li Abdullatifxon esa Samarqand xoni bo'lgan. Abdulazizxon otasi Ubaydullaxon vafotidan keyin Buxoro taxtiga o'tiradi, ammo Samarqand xoni uni bosh xon sifatidida tan olmaydi, natijada kelishmovchiliklar kelib chiqqan. Toshkent hokimi Navro'z Ahmadxon va Abdullatifxonlar Abdulazizga qarshi qo'shin tortadi. Abdulazizxon Balxga qochadi, biroq Jo'ybor shayxlari Toshkent, Samarqandlik hokimlari hokimlarni qo'llab-quvvatlaganlari uchun Buxoroni tashlab chiqib ketishga majbur

¹ Asqarov A. «O'zbekiston tarixi» T. «O'qituvchi» 1994 y. 79-bet

bo'lishdi. U o'z hukmronligi davrida davlat va aholi manfaatlarini ko'zlab qator islohotlar o'tkazgan, ayrim soliqlar (tanob puli, tafovut, tavfiri va b.) ni bekor qilgan. Uning davrida to's-to'polonlar ko'p bo'lganligiga qaramay mamlakat obodligi va yurt qurishga kirishib, oliy imoratlar bino etdi. Xususan u Buxoro atrofini yangi mudofaa devori bilan o'rashga kirishgan (uni Abdullaxon II qurib bitkazgan bo'lib, 20-a. boshlarigacha saqlangan). U o'z otasi Ubaydullaxonga bag'ishlab shunday imorat qurdirdiki uni tariflashga til ojiz. Bundan tashqari u Buxoroda madrasa, Bahouddin Naqshband qabristonida xonaqohlar qurdirgan.

Abdulazizxonning ulkan bir jutubxonasi bor edi, o'sha paytda bunday kutubxona bo'lganmi, yo'qmi aytish qiyin. Uning kitobdori ham o'z zamonasida tengi yo'q naqqosh va xattot edi."Bu kutubxona" – tarixiy manbalarda yozilishicha Xurosonga yurishlaridan birida Abdulazizxon qo'lida Husayn Boyqaro kitobxonasi tushgan. Maskur kutubxona asosida tashkil etilgan.

Abdulazizxon ilm va she'riyat homiysi, o'ta taqvodor inson bo'lib, tasavvuf olimi Shayx Jalolning mudiri edi. U benazir husniyat sohibi bo'lgan, "Aziziy" taxallusi bilan g'azallar bitgan.

Abdulazizxon 41 yoshida 1550-yil 16-mayda vafot etadi. Qabri otasining yonida Ubaydullaxon sipposida joylashgan.

Samarqand xoni bo'lgan shayboniy hukmdor. U Ubaydullaxon va Baroqxon bilan birgalikda Xorazmni egallagan (1537-38-y.). 1541-yil Samarqandni Buxoro xonligidan mustaqil deb e'lon qilib mamlakatda ikki hokimiyatchilik vujudga kelishiga yo'l qo'ygan (1540-50-y.). Baroqxon bilan birgalikda Karmanaga yurish qilgan. Ammo Karmana hokomi Abdullaxon II bu hujumni qaytargan. Shariat jonkuyari bu xonning yaxshi hislatlari va ko'pgina taxsinga sazovor ishlari bor edi. U o'z xalqiga yomonlikni ravo ko'rmadi, ba'mani qiliqlarni batamom tiyildi va ziyofatlarni olim – fozillarsiz o'tkazmadi. Uning davrida Samarqand shahri gullab yashnadi. Uning bog'lari Eram bog'laridan ham go'zalroq deb ta'riflanardi.

Abdullatifxon o'z qarindoshlari orasida ustun va shuhrati baland edi. Tarix fanini yaxshi bilar, ilm-ma'rifatlardan xabardor edi. Kecha-yu kunduzini teng soatlarga bo'libhar bir soatida munosib shu bajarar edi. Kuchli hofizlari bor edi.

Gohida shoirlar va fozillar bilan suhbat qurar edi. O'zi esa she'r yozish bilan kam shug'ullangan bo'lsada, ammo „Xush” taxallusi bilan she'r yozgan. Abdullatifning topshirig'iga binoan Ma'sud ibn Usmon Ko'histoniy “Tarixi Abulxayrxoniy” nomli asar yozadi. Bu asar Ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga olgan Abulxayrxonga bag'ishlanadi.¹

Abdullatifxon 1551-yilda may oyida vafot etadi. Undan Abdol Sulton va Gadoyxon ismli o'g'illar qolgan. Qabri Ko'chkunchixon madrasasi (Samarqand)da.

Shayboniylar sulolasidan bo'lgan xon. Abulxayrxonning nevarasi, Toshkent hokimi Suyunchxojaning kichiq o'g'li. Otasi vafotidan so'ng Toshkent hokimi (1525-1551-y) so'ngra Movarounnahr xoni (1551-1556-y.). U yoshligida Vosifiydan she'riyat, musiqa, ashula, vazn va nazmdan ta'lim olgan. Ayni vaqtda chavandozlik va harbiy mashqlar bilan ko'proq shug'ullangan. Baroqxon XVI asr o'rtalarida Buxoro xonligida kuchayib ketgan feodal kurashdan foydalanib, Movaronnahrni qo'lga kiritib oldi. So'ngra qo'shin bilan Shayboniyxonning jiyani Muhammad Rahimni Buxoro ustiga otlantirdi. Lekin Muhammad Rahim yo'lda to'satdan vafot etdi. Uning o'g'li Burxon sulton otasiga qarashli harbiy qismlar va mulozimlari bilan Buxoro ostonasiga yetib keldi. Ayni shu vaqtning o'zida Baroqxon Toshkentdan, Abdullatifxon esa Samarqandda Buxoro ustiga qo'shin tortib, oxir-oqibat uni egalladilar (1540). Baroqxon Burxon sultonni Buxoroni boshqarishda vaqtincha hukmdor bo'lib turgan Muhammadyor sultonga sherik qilib qo'ydi. Ittifoqchilar (Baroqxon va Abdullatifxon) Burxon sultonni ham o'zlariga qo'shib Miyonkol hukmdorlari Iskandarxon va Abdullaxonga qarshi yurish boshladilar. Abdullaxon miyonkolni Baroqxonga qoldirib, Balxga ketishga majbur bo'ldi va u yerdan turib amakisi Balx xoni Pirmuhammadxonning yordami bilan Baroqxonga qarshi uch marta (1553,1554,1555) qo'shin tortdi, lekin har gal mag'lubiyatga uchradi. Baroqxon Abdullatifxon vafotidan keyin 1551-yilda Samarqandni ham egalladi.

¹ O'zbekiston xalqlari tarixi. 2-jild. T., «Fan», 1992 y. 23-bet

2. Buxoro Shayboniylar davlatining poytaxti.

2.1. Buxoroning poytaxt sifatidagi ahamiyati.

Shayboniylar hukmronligi yillarida eng oliy davlat idorasi dargoh hisoblangan. Uning tepasida oliy hukmdor–xon turgan. Oliy hukmronlik otadan bolaga emas, balki suloladagi eng ulug‘ namoyondaga o‘tgan. Keyinchalik bu an’ana sulola ichidan oilaviy taxt vorisligiga o‘tgan. Abdullaxon II davriga kelib, masalan, hokimiyat Iskandarxondan o‘g‘li Abdullaxonga, Abdullaxondan esa o‘g‘li Abdulmo‘minga o‘tgan. Ammo shayboniylar sulolasidagi davomiylik so‘nggi paytga qadar ana shu tartibda shakllana olmagan. Abdullaxon II davrida Balx viloyati hokimligini valiahdga topshirish an’anasi shakllanib borgan. Biroq Shayboniylar faoliyatiga chek qo‘yilishi bilan bu an’ana rivojlanmay qolgan. Bu an’ana ashtarxoniylar davrida yana tiklangan.

Dargohdagi xondan keyingi davlat mansabi sardor, boshliq, yetakchi deb hisoblangan va u xonning eng ishonchli va yaqin kishilaridan biri bo‘lgan. Qabul marosimlarida u xonning chap tomonidan joy olgan va davlatning ichki va tashqi siyosati, harbiy masalalarda xonning birinchi maslahatchisi deb qaralib, xon farmon va yorliqlarida uning nomi birinchi bo‘lib qayd etilgan. Masalan: 1570 yili Buxoroda hokimiyatni tiklash jarayonida, buxoroliklar bilan muzokaraga xon o‘z sardorini yuborgan. Bundan tashqari harbiy yurishni uyushtirish, dushman harbiy qudratini o‘rganish, elchilik vazifalarini bajarish vazifalarini ham sardor olib borgan.

Davlat tasarrufiga tegishli mansablardan yana biri–otaliqdir. U otasining o‘rnini bosmoq mazmunini anglatadi. Ushbu xizmat hokimiyatning joylardagi viloyat–mulklardagi siyosatini belgilashda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Zero, oliy hukmdor mamlakat qismlarini viloyatlarni sulola namoyondalari–shahzodalariga taqsimlab bergan. Balog‘at yoshiga yetmagan shahzodalar, to ulg‘ayib mustaqil faoliyat ko‘rsatgunlariga qadar, otaliqlar hokimiyatni boshqarganlar. Ular butun bir viloyat taqdirini hal etib kelganlar.

Xonning chiqargan hukmini yorliq va boshqa rasmiy hujjatlarini o'z egalariga yetkazishga parvonachi javobgar bo'lgan.

Dargohga tushgan arzlarni qabul qilib, javobni berish, mamlakatdagi tartiblarga amal qilinishini nazorat qilish dodxoh zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek u elchilarni qabul qilish, elchilik yumuchlarini tashkil etish va hatto shaxsan elchi sifatida boshqa mamlakatlarga borib kelish tadbirlarini bajargan. Ko'kaldosh, ya'ni ko'ngildosh mansabi dargohdagi muhim lavozimlardan biri hisoblangan. Bu lavozimga xon va sulolaning eng yaqin kishilaridan qo'yilgan. Oddiy qilib aytganda, mamlakatda xon olib borayotgan siyosat daxlsizligi, unga kishilarning munosabatlari kabi ishlarni nazorat qilib borish ko'kaldoshning vazifasi bo'lgan. Masalan: Abdullaxon II va Abdulmo'min o'rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etishda Qulbobo ko'kaldosh asosiy o'rin tutgan. U xonga Abdulmo'min harakatlari va maqsadlarini oldindan bilib, to'g'ri ma'lumot bergan. Shuning uchun Abdulmo'min taxtga chiqqandan so'ng Qulbobo ko'kaldoshdan qutilish uchun uni qatl ettirgan.

Xon bilan shahzodalar o'rtasidagi aloqalarni, sulola ichki munosabatlariga oid tadbirlarni yo'lga qo'yishni xon yasovuli olib borgan. U shahzodalarni xon tomonidan qabul qilish, arzlar, iltimoslarini yetkazish kabi ishlarni bajargan.

Dargohdagi tartib-intizom, keldi-ketdi, xavfsizlik ishlari eshik boshi zimmasida bo'lgan chap eshik og'osi, o'ng eshik og'osi. Ular urush paytlarida xonning eng muhim harbiy topshiriqlarini ham bajarganlar.

Umuman olganda, o'sha zamonlarga xos ravishda davlat xizmatchilari urush paytlarida o'zlarining vazifalariga qo'shimcha qilib, harbiy faoliyat bilan ham shug'ullanganlar.

Dargoh bilan bog'liq boshqa bir qancha xizmatlar ham bo'lgan. Bulardan asosiysi shayxulislom lavozimi bo'lib, uning davlat jamiyat va mafkuraviy hayotdagi o'rni yuksak darajada bo'lgan. Masalan, Abdullaxon II ni taxt uchun kurashda qo'llab-quvvatlagan Xoja Islom bo'lganligini eslashning o'zi kifoyadir.

Din peshvolari nafaqat ijtimoiy hayotda, balki iqtisodiy munosabatlarda ham o'z mavqelarini yo'qotmaganlar. Shuning uchun ham vaqf mulklari bilan

shugʻullanuvi maxsus xizmatlar joriy etilgan boʻlib, ularni mamlakat miqyosida bosh sadr, joylarda esa sadrlar boshqarganlar.

Shayboniylar Oʻrta Osiyo hududlarini egallagach gʻolib koʻchmanchilarning asosiy ommasi Toshkent yaqinida, Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo va Sirdaryo vohalarida joylashdilar. Koʻchmanchilarning anchagina qismi Amudaryoning chap qirgʻogʻiga, hozirgi Afgʻonistonning shimoliy hududlariga koʻchadilar. Yer-suvlar qaytadan taqsim qilinadi. Shayboniylar davlati dastlab mulklarga taqsimlangan. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Balx, Hisor va boshqalar ana shunday mulklar hisoblangan. Mahalliy va koʻchmanchi zodagonlar bu mulk egalari xizmat qilganlar. Yengilgan zodagonlarning yer-mulklari va boyliklarini musodara qilingan, qarshilik koʻrsatganlar shafqatsiz suratda jazoga mahkum etilgan. Jumladan, Xoʻja Axrorning Shayboniylar bosqiniga qarshilik koʻrsatishni uyushtirishga uringan oʻgʻli, yolgʻiz merosxoʻri Muhammad Yaxyo qatl etiladi. Uning butun mol-mulki va dunyosi musodara qilindi va shayboniylarning koʻpdan koʻp qarindosh–urugʻlariga, katta yer egalari, shayboniylarga yaqin va ularni qoʻllab-quvvatlaydigan ruhoniylar vakillariga taqsimlab beriladi.¹

Bunday tadbirlar natijasida hukmdor va boy amaldorlarning yangi tarkibi vujudga keldi. Bu yirik zamindor xoʻjayinlar orasida ruhoniylarning vakillari boʻlmish Joʻybor shayxlari oʻzlarining qudratli va nufuzi bilan ajralib turar edilar. Ularning boyliklari shu qadar koʻp boʻlganki, uni faqat Xoʻja Axror boyliklari bilangina qiyoslash mumkin boʻlgan. Ammo mazkur shayxlar oʻzlarining siyosiy taʼsir doirasi va nufuzi jihatdan Xoʻja Axrordan ham ustun boʻlganlar. Tarixchi Xofiz Tanishning yozishicha Joʻybor shayxlaridan biri Xoʻja Saʼd Buxoro xoni Abdullaxonning murabbiysi va maslahatchisi sifatida siyosiy voqealarda katta nufuzga ega boʻlganki, u barcha siyosiy voqealarda shaxsan ishtirok etgan. Xoʻja Islom Abdullaxonning hokimiyat tepasiga kelishiga yordam bergan, shu bois xon uning ijobatisiz birorta ham muhim ishni boshlamagan.

¹ Buxoro sharq durdonasi. Tʻ Sharqʻ 1997. 9- bet

Bu hol shuni ko'rsatadiki, musulmon dini mafkurasi yer egaligi tizimi hukmronligiga batamom singib ketdi. Xullas, o'zbek qabilalari hukmronligi davrida ham ijtimoiy tuzumda o'zgarish bo'lgani yo'q, temuriylar davrida qanday bo'lsa, shundayligicha qoldi. Ya'ni, mulkka egalik qilishning mazmuni o'zgarmadi, faqat u bir qo'ldan ikkinchi qo'lga o'tdi, holos, yer mulki avvalgi asrlardagidek davlat mulki, xususiy mulk va vaqf mulkligicha qola berdi. Yer mulklarining ko'pchiligi davlatga qarashli yerlar edi. Dehqonlar davlat yerlaridan foydalanganliklari uchun olingan hosilning ma'lum bir qismini xiroj (yer rentasi) tarzida to'lardilar. Davlat yerlarining katta bir qismi o'zbek qabilalariga «yurtlar», harbiy va fuqaro shahslarga «suyurg'ol» yoki «tanho» sifatida in'om qilib taqsimlab berilgan. Yer in'om qilish natijasida davlat tomonidan bevosita nazorat qilinadigan dehqon aholisining qo'lidagi yer maydoni shu qadar kamayib ketdiki, natijada g'aznaga tuchadigan xiroj va boshqa soliqlar tushumi tobora kamayib ketadi.

Shimoliy hududlardan O'rta Osiyo yerlariga kelib o'rnashgan etnik jihatdan turk-mo'g'ul qabilalarining avlodi bo'lgan Dashti Qipchoq o'zbek qabilalari taraqqiyotda bu mintaqadagi mahalliy xalqlardan nisbatan ancha orqada bo'lganlar. Ular azaldan bu yerda yashab kelayotgan turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar bilan yaqinlashib, o'troq yashash tarziga o'ta boshlaganlar, dehqonchilik qilganlar, polizchilik bog'dorchilik bilan shug'ullanganlar, kosibchilik va hunarmandchilik madaniyatini egallaganlar. Dashti Qipchoq kelgan xalq mahalliy aholidan o'troq madaniy hayot kechirish sirlarini o'rganganlar va ana shu jarayonda birlashib, qo'shib- qorishib ketganlar. Bu shundan dalolat beradiki, Dashti Qipchoq cho'llaridan ko'chib kelganlar asrlar davomida O'rta Osiyoda qadim-qadimdan yashab kelgan turkiy tilda so'zlashuvchi xalq tarkibiga kiradi.

XVI asrning dastlabki o'n yilliklaridan e'tiboran shaharlarning izdan chiqqan xo'jalik hayoti sekin astalik bilan tiklana boshladi. 1512 yilda o'lkaga tashrif buyurgan Xurosonli shoir va adabiyotshunos Vosifiyning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Shayboniylar zamonida Buxoro, Samarqand va Toshkent serhosil vohalar hisoblanib, hunarmandchilik savdo va madaniyat yuksalgan.

Abdullaxon davrida Buxoroda «Chorsu» bozori qurilgan¹. Bozor ko'chalarining bir-biri bilan kesishib o'tgan joyida gumbazli binolar bo'lgan. Bu binolarda telpakfuruslar (toqi-telfakfurus), zargarlar (toqi-zargaron), sarrofsudho'rlar (toqi-sarrofon) va boshqalar joylashganlar. 1587 yilda Abdullaxon musofirxona barpo ettirgan. Juda ko'p karvonsaroylar barpo etilgan. Xo'ja Sa'dga qarashli Gavkushon karvon saroyi (1570) va Lisak masjidiga yaqin joydagi saroy (1560) shular jumlasidandir. Bu me'morchilik obidalari hozirda-da saqlanib qolgan va xorijlik sayyohlarning e'tiborini tortmoqda.

Shayboniylar davrida ishlab chiqariladigan hunarmandchilik va kosibchilik mahsulotlariga, qog'oz, shoyi, qurol-aslahalarga hatto chet mamlakatlarda ham talab va ehtiyoj katta edi. «Mir Ibrohimiy», «Sultoniylar» kabi a'lo sifat Samarqand qog'ozlarining dovrug'i uzoq-uzoqlarga ketgandi. Buxoro, Toshkent va Samarqand viloyatlarida temir bilan bir qatorda rudadan cho'yan quyish rivojlandi. Sovun ishlab chiqarish, misgarlik tosh va yog'och o'ymakorligi, to'qimachilik rivoj topdi. Xullas bu davrda hunarmandchilikning 61 turi mavjud edi. Bu hol mamlakatda nafaqat ichki savdoning balki xorijiy mamlakatlar bilan ham savdo-sotiq aloqalarining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Buxoro va Xivaning elchilari, O'rta Osiyo savdogarlarini qo'shni mamlakatlar: Hindiston, Eron, Mo'g'uliston, Qozoqlar, Sibir dashtlari, no'g'aylar yurtlariga, hatto Moskvagacha boshlab borganlar. Bunga javoban Buxoro xonligiga ham turli xorijiy mamlakatlardan elchilar kelganlar. Bu davrda Xitoy bilan o'zaro bordi-keldi aloqalari keng yo'lga qo'yilgan. Xitoydan ko'proq ipak gazlamalari, chinni idishlar, dori-darmonlar, choy keltirilgan.

¹ Buxoro tarixi mualliflar guruxi. T., "Fan", 1974. 74-75 betlar

Xulosa

Shayboniylar davrida Buxoro mavzusini tadqiq etish orqali quyidagi xulosalarga kelindi :

Birinchidan, Muhammad Shayboniy Mavoraunnahr yerlariga kirib kelishi bilan , Oʻrta Osiyoliklarning ichki kuchlariga tayanib yurishlar qilgan va oqibatda chegarasi Amudaryo doirasidan juda uzoqqa choʻzilgan bir mamlakatni barpo etgan buyuk sohibqironlarning oxirgisi edi. Bundan keyingi jangovar yoʻlboshchilar, mahorat va hirslari qanchalik katta boʻlsada, bu boradagi baxt-omadga erisholmadilar.

Ikkinchidan, bundan keyin Oʻrta va Gʻarbiy Osiyoda qabilalar urushi qatʻiy tugadi. Oʻzbeklar Turon yaylovidan janubiy gʻarbgga tushgan qavmlarning eng soʻngi qabilasi boʻldilar.

Uchinchidan, ilk Amu va Sir daryolarining narigi tarafidagi musulmonlar bilan Gʻarbiy Osiyodagi din qardoshlari oʻrtasida juda yaqin boʻlmasada, doimiy bir aloqa bor edi. Temuriylarning inqirozi va halokatlari bilan bu aloqa tamom boʻldi.

Toʻrtinchidan Shayboniylar davrida oʻzbek davlatchiligi tarixida katta ahamiyatga ega boʻlgan Buxoro xonligi tashkil topdi.

Beshinchidan. Bu davrda Buxoro poytaxt sifatida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, maʼnaviy sohada rivoj topdi.

Олтинчидан. Mamlakat ichida ijtimoiy hayotni tartibga solishga imkon beruvchi islohotlar oʻtkazildi.

Yettinchidan Mamlakatda yer-suvni qaytadan taqsim qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.:2011 y. 100 b
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.:2008 y. 117 b
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. 183 b
4. Asqarov A. «O‘zbekiston tarixi» T. «O‘qituvchi» 1994 y. 210 b
5. Axmedov A. Turon –«Muloqot » 1991.
6. Axmedov B. O‘zbek ulusi. T., Nur, 1992 y. 90 b
7. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. T. «O‘qituvchi», 1994 y. 122 b
8. Axmedov B. Ўзбекистон тарихи манбалари Т” Фан” 2002. 147 b
9. Abulg‘ozi Bahodirxon «Shajarai turk» T. «Cho‘lpon» 1992 y. 80 b
10. Abu Nasr Farobiy «Fozil odamlar shaxri» T., 1993 y. 94 b
11. Axmedov B.A. O‘zbekiston xalqlari tarixi. T.: 1991 y. 147 b
12. Azamat Ziyoyev. O‘zbek davlatchiligi tarixi. T” Fan ” 2001. 210 b
13. Muhammad Solih Shayboniy noma. T” G‘. G‘ulom” 1989. 70 b
14. Buxoro sharq durdonasi. T” Sharq” 1997. 90 b
15. Samarqand tarixi. 1-jild. T.:1971 y. 56 b
16. Ravshanov P. Qashqadaryo tarixi. T.: “Fan”, 1995 y. 82 b
17. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. T.: “Sharq” nashriyoti, 2000 yil. 117 b
18. «O‘zbekiston xalqlari tarixi» T. «Fan» 1992 y. 120 b
19. O‘zbekiston xalqlari tarixi. 2-jild. T., «Fan», 1992 y. 92 b
20. Muhammadjonov A. Ipak yo‘li bo‘ylab. “Fan va turmush, 1990 y.
21. Shahrizabz. Ming yillar merosi. T.: “Sharq”, 2002 yil. 23 b
22. Qadimgi Kesh – Shahrizabz tarixidan lavhalar. T.:1998 y. 47 b
23. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma “ Fan” (1 va 2 kitob). 2001. 60 b
24. O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan. T” Sharq” 2012. 86 b
25. www.ziyonet.uz
26. www.ref.uz
27. //„Xalq so'zi"
28. //„O'zbekiston ovozi"